

KEYINGI YILLARDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING MA‘NOSI, IMLOSI VA LUG‘ATLARDAGI IFODASI

Choriyeva Nafisa Sadridin qizi

Termiz davlat universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15521997>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tiliga so‘nggi yillarda kirib kelgan o‘zlashma so‘zlarning ma‘nosi, ularning o‘zbek tilida qay tarzda ishlatilishi hamda milliy imlo qoidalariga moslashtirish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘zlashma so‘zlarning lug‘atlarga kiritilishi uchun zarur bo‘lgan mezonlar va ular bilan bog‘liq muammolar yoritiladi, yangi o‘zlashmalarni tilimizga moslashtirishda taklif va tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so‘zlar: globalizatsiya, selfi, streaming, blog, bloger, gadget, blokcheyn, popkorn, you tube, internet, fliranser, online, follower, scanner, post, like, stapter, facebook, fast food.

Til doimiy ravishda o‘zgaruvchan va rivojlanayotgan hodisadir. Har bir davr o‘ziga xos leksik o‘zgarishlarni olib keladi, bu esa tilni zamonaviy jarayonlarga moslashtirishga yordam beradi. Jumladan, o‘zbek tili ham tarixan, boshqa tillardan ko‘plab so‘zlarni o‘zlashtirgan til hisoblanadi. O‘zlashgan so‘zlar xalqimizning madaniyatida, turmush tarzida muhim rol o‘ynaydi.

Keyingi yillarda esa globalizatsiya jarayoni, texnologik taraqqiyot, axborot almashinuvi, jamiyatdagi o‘zgarishlar, madaniy ta’sirlar va pop madaniyat tufayli ingliz, rus, arab va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar soni kundan kunga keskin oshib bormoqda.

Globalizatsiya - dunyo bo‘ylab insonlar o‘rtasidagi aloqalar kuchaygani sari tilimizga xorijiy so‘zlar kirib kelmoqda. Savdo, sayohat, internet, ijtimoiy tarmoqlar, ilmiy va texnologik yangiliklar orqali boshqa tillardagi atamalar tilimizga kirib kelmoqda. Bu jarayon global madaniyatga va yangi tushunchalarga moslashishga yordam beradi.

Texnologiya va fan taraqqiyoti - texnologik va ilmiy yutuqlar natijasida paydo bo‘lgan yangi tushunchalarni ifodalash uchun ko‘pincha yangi atamalar qo‘llaniladi. Masalan, kompyuter texnologiyalari, internet, va zamonaviy gadjetlar bilan bog‘liq so‘zlar tilimizda paydo bo‘lmoqda.

Madaniy ta’sirlar va pop madaniyat - filmlar, musiqa, moda va sport kabi sohalar orqali boshqa tillardan olingan so‘zlar tezda madaniyatimizga kirib kelmoqda. Pop madaniyatning tarqalishi va global ommaviy axborot vositalari orqali xorijiy so‘zlar tez tanilishiga sabab bo‘lmoqda. Jamiyatdagi o‘zgarishlar - jamiyatning o‘zgarishi, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar ham tilga ta’sir qiladi.

Masalan, yangi ijtimoiy hodisalar, biznes va ish bilan bog‘liq tushunchalar tezda yangi so‘zlarni olib kiradi. Bundan tashqari yangi o‘zlashgan so‘zlar tilimizdagi leksik boylikning oshishi, qoidalaridagi o‘zgarishlar, tilni standartlashtirish, me'yorlashtirish masalalari va mahalliylikni saqlashga ta'sir etadi. Ya'ni yangi so‘zlar tilimiz leksikasini boyitadi.

Ular orqali yangi tushunchalar, texnologiyalar va madaniy fenomenlar ifodalanishi osonlashadi. Yangi so‘zlarning tilga kirishi bilan ularning talaffuzi va yozilishida ham o‘zgarishlar talab etiladi. Bu yangi qoidalarni qabul qilish yoki mavjud qoidalarni moslashtirish zaruratini tug‘diradi.

Ko'plab yangi so'zlar tilga kirgan sari ularni standartlashtirish va lug'atlarga kiritish masalalari dolzarblashadi. Bu tilshunoslarga yangi so'zlarni tahlil qilish, ularning qabul qilinishi va rasmiylashtirish jarayonini boshqarish vazifasini yuklaydi.

Yangi so'zlarning kirib kelishi ba'zan milliy tilning o'ziga xosligini saqlash masalalarini ham keltirib chiqaradi. Bu mahalliy so'zlarning ahamiyatini saqlash va milliylikni o'ylab ish tutishga chorlaydi. Bu jarayonlar orqali tilimiz boyib, rivojlanib bormoqda, lekin tilning birligiga e'tibor qaratish va uning milliy xususiyatlarini saqlash ham muhim sanaladi.

O'zbek tilida o'zlashgan so'zlarning ma'nosi, imlosi va lug'atlarga kiritilishi masalasi bugungi kunda juda muhimdir. O'zbek tilining boyligi va rang-barangligini ta'minlash uchun ushbu so'zlarni to'g'ri ifodalash va taleffuz qilish, shuningdek, ularni lug'atlarga ehtiyotkorlik bilan kiritish zarur. O'zlashgan so'zlar tilimizga yangilik va rivojlanish olib kelmoqda, shuning uchun ularga alohida e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. O'zlashgan so'zlar, aslida boshqa bir tilning so'zidan kelib chiqib, yangi ma'no kasb etgan yoki mavjud ma'noni yangilagan so'zlardir.

Masalan: "**internet**", "**smartfon**", "**troll**" kabi so'zlar o'zbek tilida keng tarqalgan va ular zamonaviy hayotda muhim ahamiyatga ega. Bu so'zlar faqatgina leksik boylikni oshiribgina qolmay, balki davr talabi bo'yicha yangi tushunchalar va fenomenga ham yo'l ochadi. O'z navbatida bu so'zlarning imlosiga ham e'tibor qaratmoq joizdir. O'zlashtirilgan so'zlarning imlosi ko'pincha bahsli mavzu hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi dastlabgi tilning imlo qoidalariga ko'ra yoziladi. Biroq, o'zbek tilining imlo qoidalariga mos keladigan usullarni qo'llash zarur.

Masalan, "**kompyuter**" so'zi, inglizcha "**computer**" so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida yozilishi va talaffuz qilinishi muhimdir. Yoki boshqa shu kabi yangi leksemalar misolida ham ko'rishimiz mumkin: **gadget** – bu so'z asosan mobil qurilmalar, kichik texnik jihozlar yoki dasturlarni ifodalash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida unga mos keladigan “qurilma” yoki “jihoz” atamaları mavjud bo'lsa-da, “gadget” atamasi ayniqsa yoshlar orasida ommalashib bormoqda. **Streaming** – internet orqali videolarni uzatish va tomosha qilish ma'nosini bildiradi.

Bu so'z O'zbekistonda asosan "stream" tarzida ishlatilmoqda, ba'zida esa “translyatsiya” shaklida ham uchraydi. **Influencer** – ijtimoiy tarmoqlarda o'z obunachilariga ta'sir ko'rsata oladigan shaxslarni anglatadi. O'zbek tilida "ta'sir ko'rsatuvchi" shaklida ishlatilishi mumkin, lekin ko'proq "influencer" shaklida uchraydi. Shu bilan birga, aksar holatlarda o'zlashgan so'zlarning talaffuzi va yozilishi bir-biriga to'g'ri kelmaydi, bu esa ularning tilga to'g'ri kiritilishi zarurligini taqozo etadi. Yangi so'zlar tilimizga kirar ekan, ularning yozilishi va talaffuzida ba'zi chalkashliklar kuzatiladi. **Selfie** – bu so'z rus tilidan qabul qilingan va o'zbek tiliga “selfi” tarzida moslashtirilgan. **Selfi** – o'z-o'zini suratga olishni anglatadi. Hozirgi kunda yozishda va aytishda ikkala shakli ham uchraydi, lekin rasmiy imlo qoidalariga ko'ra "selfi" shaklida ishlatilishi maqsadga muvofiq. **Online** va **Offline** – bu so'zlar internet bilan bog'liq holatlarni ifodalaydi.

Onlayn –internet orqali xizmat yoki aloqa qilish tushunchasini ifodalash. O'zbek tilida “onlayn” va “oflayn” shakllari qabul qilingan, lekin inglizcha shakllarini ishlatish ham keng tarqalgan. **Blog** va **Blogger** – dastlab, bu atamalar texnologiya sohasi bo'yicha lug'atlarda qo'llangan, keyinchalik esa asosiy lug'atlarga kiritildi.

Email – dastlab bu soʻz faqat ingliz tilida ishlatilgan boʻlsa, keyinroq "elektron pochta" shaklida qabul qilindi va rasmiy lugʻatlarga kiritildi.

Oʻzlashgan soʻzlarni oʻrganishda soʻnggi lugʻat nashrlari va oʻzlashma soʻzlar roʻyxatidagi yangilanishlarni kuzatish juda muhim. Masalan: **Hybrid** (masalan, hybrid mashina) – bu soʻzni "gibrid" shaklida ishlatish ham uchraydi, ammo toʻgʻri talaffuzi va yozuvi qoidalarda aniqlashtirilishi kerak boʻladi. **Scanner** – koʻpincha "skaner" shaklida qabul qilingan, lekin bu kabi soʻzlarning rasmiy lugʻatlarga mos yozilish shaklini kuzatish muhim. Ijtimoiy tarmoqlarga oid oʻzlashgan soʻzlar tilimizda juda faol ishlatilmoqda va ularning koʻpchiligi yoshlar orasida keng ommalashgan: **Post**-ijtimoiy tarmoqlarda rasm, matn yoki video koʻrinishida joylangan kontent. Oʻzbekchada "eʼlon" yoki "xabar" kabi soʻzlar bilan almashtirilishi mumkin, lekin asosan "post" shaklida qolmoqda. Masalan, "Men Instagramʼda yangi post joyladim". **Like**-kimningdir postiga yoki kontentiga boʻlgan ijobiy munosabatni bildirish. Oʻzbekcha ekvivalenti: "yoqtirish", ammo bu soʻz "layk bosish" shaklida oʻzbek tiliga oʻtib, amalda ishlatilmoqda.

Masalan, "Mening suratinga 1000 ta layk bosildi". **Comment**- postga yozilgan fikr yoki mulohaza. Oʻzbekcha muqobili: "izoh" yoki "sharh" shakllari ishlatilishi mumkin. Biroq, ijtimoiy tarmoqlarda "komment" yoki "kommentariya" shakllari keng tarqalgan. Masalan, "Uning postiga juda koʻp komment qoldirilgan". **Follower**-ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisining sahifasini kuzatib boruvchi shaxs. Oʻzbekcha shakli: "obunachi" deb tarjima qilinishi mumkin, ammo "follower" yoki "follovers" shaklida keng qoʻllanadi. Masalan, "Mening Instagram sahifamda 5000 ta follower bor". **Hashtag**-postlarni tematik tarzda bogʻlash uchun ishlatiladigan belgi va soʻz birikmasi (#). Tilimizdagi koʻrinishi: "tag" yoki "belgi" deb ishlatilishi mumkin, lekin asosan "hashtag" shaklida qabul qilingan. Masalan, "Ushbu mavzuga oid hashtaglardan foydalaning". **Direct Message (DM)**- ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy xabar joʻnatish. Oʻzbek tilida: "xabar" yoki "toʻgʻridan-toʻgʻri xabar" deb tarjima qilinadi, lekin "DM" yoki "direkt" kabi qisqartmalar keng ishlatilmoqda. Masalan, "Menga DM yuboring". **Story**-24 soat davomida koʻrinadigan qisqa muddatli kontent. Tilimizdagi muqobili: "hikoya" shaklida tarjima qilish mumkin, lekin "story" atamasi ommalashgan. Masalan, "Uning story'sini koʻrdingizmi?"

YouTube — Google kompaniyasiga tegishli boʻlgan, video kontent almashish va tomosha qilish uchun yaratilgan platforma. Foydalanuvchilar YouTubeʼda videolarni yuklashi, ularni tomosha qilishi, ulashishi va ularga izoh qoldirishi mumkin. YouTube platformasi dunyo boʻylab eng ommabop ijtimoiy tarmoqlardan biri boʻlib, millionlab foydalanuvchilar u orqali turli kontent (koʻrsatuvlar, darsliklar, musiqa, vloglar va hokazo) yaratib, ulashmoqda. Oʻzbek tilida "YouTube" odatda oʻz holicha, asl inglizcha shaklida ishlatiladi. Chunki bu soʻz brend nomi boʻlib, asosan notoʻgʻri oʻzlashtirish yoki moslashtirishdan saqlanish maqsadida rasmiy shaklda saqlanadi. YouTube bilan bogʻliq boshqa atamalar ham tilimizda paydo boʻlgan, masalan: **Youtuber** — YouTubeʼda oʻz kanaliga ega boʻlgan va doimiy ravishda kontent yuklaydigan shaxs. Oʻzbek tilida koʻpincha "yutuber" shaklida yoziladi.

YouTube kanal — YouTubeʼda kontent yuklanadigan shaxsiy yoki korporativ sahifa.

"YouTube" soʻzi koʻpincha "Yutub" tarzida talaffuz qilinadi, lekin yozilishda asosan asl shakli saqlanadi. Shuningdek, brend nomi sifatida oʻzbekcha lugʻatlarga toʻgʻridan-toʻgʻri kiritilmagan.

O'zbek tilida "yutuber", "yutubda" kabi so'zlar ham tilimiz imlosiga moslashtirilgan holatda uchraydi, lekin bu yozuv shakllari hali rasmiy imlo qoidalariga asoslanmagan.

O'zbek tilida YouTube orqali ko'plab yangi atamalar, jumladan "**subscribe**" ("obuna bo'lish"), "**like**" ("yoqtirish"), "**comment**" ("izoh qoldirish") kabi so'zlar keng tarqalmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning kengayishi, bu so'zlarning o'zbek tilidagi o'rnini mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

Rasmiy lug'atlarga ba'zilari hali kiritilmagan bo'lsa-da, ular tilimizda mustahkam joy egallashni boshlagan. **Smartfon** – zamonaviy mobil qurilmalarni ifodalash uchun qabul qilingan so'z. **Blokcheyn**–raqamli texnologiyalar bilan bog'liq yangi tushunchalar.

Zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar ham yangi so'zlarni keltirib chiqarmoqda:

Startup – yangi texnologik yoki innovatsion biznes loyihalarni anglatadi. **Frilanser** – mustaqil faoliyat yurituvchi shaxslar uchun ishlatiladigan atama. **Investitsiya** – sarmoya qo'yish jarayonini ifodalaydi. Pop madaniyat va global axborot oqimi orqali tilimizga yangi so'zlar kirib kelmoqda: **Popkorn** – madaniy ko'ngilochar faoliyat bilan bog'liq atama.

Karaoke–musiqa bilan birga qo'shiq aytish faoliyatini ifodalaydi. Yangi so'zlar tilimiz leksikasini boyitib, yangi tushunchalarni ifodalash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, texnologiya va ilm-fan sohalarida yaqqol seziladi. Biroq yangi so'zlarning ortib borishi mahalliy so'zlarni siqib chiqarish xavfini tug'diradi. Masalan, "lider" so'zi ko'pincha mahalliy "yetakchi" so'zi o'rnida ishlatilmoqda. Yangi so'zlarning rasmiylashmagan shakllari ba'zan chalkashliklarga olib keladi.

Bu esa til birligini saqlashda muayyan muammolarni keltirib chiqaradi.

Yangi so'zlarning mahalliy madaniyatga moslashtirilishi – ularning qabul qilinishida muhim ahamiyatga ega. Misol uchun: Lider so'zi rahbar yoki yetakchini anglatadi, biroq ko'pincha "boshliq" so'zi bilan aralash talqin qilinadi.

Onlayn so'zining mahalliylashgan talaffuzi "on-layn" shaklida yoziladi. Ba'zan yangi so'zlarning talaffuzi xorijiy til qoidalariga mos tarzda saqlanib qoladi, bu esa mahalliylashuvni sekinlashtiradi. Tilga yangi kirib kelgan so'zlarning yozilish qoidalarini standartlashtirish dolzarb masaladir. Masalan: Selfi so'zining yozilishi ba'zan "self" yoki "selfy" tarzida xato ishlatiladi. Facebook so'zi bu shaklda emas, feysbuk shaklida, fast food yoki fast-fud emas, fastfud deb yozishi

Tilga kirib kelgan yangi so'zlar rivojlanishning tabiiy qismidir. Ammo ularni tilimiz qoidalariga ko'ra me'yorlashtirish va rasmiy lug'atlarda aks ettirish muhim masaladir. Bu borada yangi so'zlarni standartlashtirish va ularning yozilish qoidalarini belgilash zarur. Lug'at yaratuvchilar va tilshunoslar birgalikda ish olib borishi kerak. Rasmiy lug'atlarda standart shakllar taqdim etilishi lozim. Yangi so'zlarning tilimizga kirib kelishi leksik boylikni oshirsa-da, bu jarayonda milliy tilning o'ziga xosligi va boy merosini yo'qotmaslik muhim. Har bir yangi so'zni qabul qilishda uning madaniy va lingvistik muvofiqligi o'rganilishi kerak.

Rasmiylashtirish jarayonida esa mahalliy tillarning o'ziga xosligini saqlash bilan birga, zamonaviy ehtiyojlarni ham qondirish muhimdir. Lug'atlar va til o'qitish vositalarida yangi so'zlar uchun maxsus bo'limlar yaratish, xalqaro va mahalliy atamalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash til barqarorligini oshiradi.

Bundan tashqari, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari orqali yangi so'zlarning to'g'ri qo'llanilishi targ'ib qilinishi kerak. Shu bilan birga, xalqaro miqyosdagi tilshunoslik tadqiqotlaridan foydalanish va boshqa tillarning tajribasini o'rganish ham foydali bo'ladi.

REFERENCES

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. Toshkent 2016.
2. Globalizatsiya va til: zamonaviy chaqiriqlar. Tilshunoslik jurnali, 2022-yil.
3. Internetdagi ochiq manbalar: texnologik atamalar haqidagi maqolalar.
4. Mahalliy va xalqaro yangilik portallari (2023-yil ma'lumotlari).
5. O'zbek tilining katta imlo lug'ati. Kafolat print company nashriyoti. Toshkent 2023.